Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ...	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati.....	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar.....	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinovna</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirqul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process	1014
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English.....	1019
Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi	
Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati	1025
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi	
Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari.....	1028
Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari.....	1031
Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish	1034
Iminova Z. B.	
Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati.....	1038
Inayatova Nargisa Nishonboyevna	
O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1044
Kalmuratovna Venera Sultanova	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari	1049
Kamola Abdullayeva	
O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari	1052
Karimov Orif Obloqul o'g'li	
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati	1055
Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers	1060
Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri	1063
Makulov Shuxratjon Zokirovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar	1067
Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	1072
Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi	1075
Mansurova Umida Mansur qizi	
Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	1081
Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati	1084
Murodov Nozimjon Olimjonovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari	1088
Nafasova Jamila Turg'un qizi	
Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish	1093
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi	1097
Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli.....	1101
O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari.....	1104
Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	1108
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari.....	1112
Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parnonkulova Mo‘tabar Zayniddinova	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ...	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinova, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili ...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ...	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma’mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня A2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачева Гульчехра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	

INKLYUZIV TA'LIM TAMOYILLARI, TIZIMI VA UNDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING AHAMIYATI

Inayatova Nargisa Nishonboyevna

Urganch RANCH texnologiya Universiteti

Pedagogika mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'limning mazmuni, asosiy tamoyillari hamda uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari haqida ma'lumotlar berilgan. Inklyuziv ta'lim – barcha o'quvchilar, xususan alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini tenglashtirishga qaratilgan ta'lim tizimi bo'lib, unda farqlilikni inobatga olish, hamkorlik, individual yondashuv va moslashtirilgan o'quv muhitini yaratish muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash xizmati, moslashtirilgan o'quv dasturlari, o'qituvchilar kompetensiyasi hamda ota-onalar ishtirokining ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, oligofrenopedagogika, maxsus pedagogika, defektologiya, individuallashtirish, nuqson.

Abstract: This article provides scientific analysis of the content, fundamental principles, and implementation mechanisms of inclusive education. Inclusive education is an educational approach aimed at ensuring equal opportunities for all learners, including children with special needs, where diversity, cooperation, individualized learning, and the creation of an adapted educational environment play a significant role. The study examines the organization of an inclusive education system, pedagogical and psychological support services, adapted curricula, teacher competencies as well as the role of parental involvement.

Key words: inclusive education, oligophrenopedagogy, special pedagogy, defectology, individualization, disability.

Аннотация: В статье представлена научная информация о содержании, основных принципах и механизмах инклюзивного образования. Инклюзивное образование – это образовательная система, направленная на обеспечение равных возможностей для всех обучающихся, включая детей с особыми образовательными потребностями, где важными являются разнообразие, сотрудничество, индивидуальный подход и создание адаптированной образовательной среды. В рамках исследования анализируются организация инклюзивной системы образования, педагогическое и психологическое сопровождение, адаптированные учебные программы, компетентность педагогов и роль участия родителей.

Ключевые слова: инклюзивное образование, олигофренопедагогика, специальная педагогика, дефектология, индивидуализация, дефект.

KIRISH

Bugungi globallashtirgan zamonimizda insoniyatning qadr-qimmati, o'zaro tengligi va adolatligi muhim faoliyat hisoblanib boryapti. Ushbu jarayonda "Maxsus pedagogika" va "Inklyuziv ta'lim" tushunchalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu atamalar ta'lim-tarbiya jarayonida bir-birini taqozo etadi va to'ldiradi. Maxsus pedagogika – oligofrenopedagogikaning mavzu bahsi – nuqsonli bolalar ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishidir. Bu esa har doim g'oyaviy kurashlar uchun manba bo'lib kelgan. Oligofrenopedagogika – aqli zaif bolalarni o'qitish, tarbiyalash, korreksiyalash, ya'ni tuzatish, ijtimoiy hayotga, odamlar orasiga qo'shish masalalarini o'rganuvchi defektologiya fanining bir tarmog'idir. Ushbu fanning vazifasi – aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishida korreksion tarbiyaning ahamiyatini ko'rsatish, ulardagi nuqsonlarning rivojlanishi hamda ularni bartaraf etish yo'llarini izlab topish, maxsus maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida, qolaversa professional va oliy ta'limda maxsus sinflarni joriy etishdan iboratdir.

Inklyuziv ta'lim tushunchasining kelib chiqishi va fanda ilmiy atama sifatida yoyilishi ta'lim tizimida yangicha tizimni maydonga olib chiqdi. Inklyuziv ta'lim – har bir bola bilim olish huquqiga ega ekanligini ma'qulladi. Jumladan, nogironligi bo'lgan, maxsus ehtiyojli, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj bo'lgan bolalar bilan sog'lom bolalarning bir sinfxonasida dars olish tizimidir. Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayonidir.



Inklyuzivlik - inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "inclusive" - qo'shish, birlashtirish kabi ma'nolarni anglatadi va alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib, birgalikda o'qitish jarayonini bildiradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuzivlikni rivojlantirish zarurati

Taraqqiyoti va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra, har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbolli maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son¹ Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son² qarori ijrosi hamda "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 9-dekabrda "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturining dastlabki loyhasini tasdiqlash va tajriba sinovdan o'tkazish to'g'risida"gi 298-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim mazmunidagi o'zgarishlar, ya'ni Milliy o'quv dasturi va boshqa me'yoriy hujjatlar tasdiqlab qo'yilgan.

Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalar, xususan jismoniy, aqliy, ijtimoiy yoki psixologik rivojlanishida turli xususiyatlarga ega bo'lgan bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan ta'lim tizimi hisoblanadi. Mazkur tizimning asosiy g'oyasi – har bir bola o'z qobiliyati, ehtiyoji va imkoniyatlaridan kelib chiqib bir xil muhitda ta'lim olishi hamda jamiyatning faol a'zosi sifatida ishtirok etishi lozim.

Inklyuziv ta'lim nafaqat nogironligi bo'lgan bolalar, balki ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj, chekka hududlarda yashovchi, turli millat, madaniyat yoki tilda so'zlashuvchi bolalar uchun ham mo'ljallangan. Bunday yondashuv bolalar o'rtasida tenglik, hamjihatlik, hurmat va mehr-muruvvat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limning asosiy prinsiplari

- 1. Tenglik va adolat tamoyili.** Har bir bola jinsidan, millatidan, sog'lig'idan yoki ijtimoiy maqomidan qat'i nazar, ta'lim olish huquqiga ega. Inklyuziv ta'limda hech bir o'quvchi kamsitilmaydi va barcha uchun bir xil imkoniyatlar yaratiladi.
- 2. Moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish.** O'quv jarayoni barcha bolalarning talablariga moslashtiriladi. Zaruratga qarab maxsus texnik vositalar, mos o'quv dasturlari, shaxsiy yondashuvlar va qo'shimcha yordam turlari qo'llaniladi.
- 3. Hamkorlik tamoyili.** Inklyuziv ta'limda o'qituvchi, ota-ona, psixolog, defektolog va boshqa mutaxassislar hamkorligi muhim.
- 4. Moslashuvchan o'quv rejasi.** O'quv dasturlari har bir bolaning individual imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda tuziladi.
- 5. Ijtimoiy integratsiya tamoyili.** Inklyuziv ta'limning maqsadi – bolalarni jamiyatdan ajratish emas, balki ularni teng huquqli a'zolar sifatida jamiyat hayotiga qo'shishdir.
- 6. Hurmat va bag'rikenglik tamoyili.** Har bir bolaning shaxsiyati, qadriyatlari va imkoniyatlariga e'tibor bilan qarash inklyuziv ta'limning ajralmas qismidir.

Inklyuziv ta'limning asosiy g'oyalari: teng imkoniyat, hamkorlik, individuallashtirish.

Tamoyillar:

- inson huquqlariga asoslanish;
- diskriminatsiyasiz yondashuv;
- har bir bola uchun mos ta'lim muhiti yaratish;
- jamoaviy mas'uliyat va ijtimoiy hamkorlik;
- pedagogik moslashuvchanlik va innovatsion yondashuv.

Inklyuziv ta'lim g'oyasi shundan iboratki, bolalar bir-biridan jismoniy, aqliy, ijtimoiy yoki madaniy jihatdan farq qilishi tabiiy hol sanaladi. Shu bois ta'lim tarmog'i bolalarning ayirmalarini "mushkulot" deb emas, balki "boylik" va "rivojlanish manbai" deb qabul qilishi lozim.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori: <https://lex.uz/docs/-5085887>



Bu yondashuv jamiyatda kamsitish, ajratish yoki chetlatish o'rniga, hamkorlik, tenglik va murosali munosabat tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan.

Asosning ijtimoiy jihati

Inklyuziv ta'limning asosiy mohiyati faqat o'qitish jarayoni bilan cheklanmaydi – u butun jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bunday ta'lim orqali jamiyat barcha fuqarolarga, shu jumladan, nogironligi bo'lgan, turlicha millat yoki tildagi, ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj bolalarga ham o'z salohiyatini to'liq namoyon etish imkoniyatini beradi.

Shu yo'sin, inklyuziv ta'lim insonning ijtimoiy integratsiyasi va jamiyatda faol ishtirok etishiga poydevor yaratadi.

Pedagogik mohiyati

Pedagogik nuqtayi nazardan inklyuziv ta'lim – bu bolaga qaratilgan o'qitish tizimidir. U o'qituvchidan har bir o'quvchining ehtiyojini anglash, o'quv jarayonini moslash va individuallashtirilgan yondashuvni talab qiladi.

Inklyuziv muhitda o'qituvchi nafaqat bilim tarqatadi, balki bolalarning shaxsiy o'sishini, o'ziga ishonchini va ijtimoiy moslashuvini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Psixologik mohiyati

Inklyuziv ta'lim bolalarda o'zaro ehtirom, hamdardlik, birlik va mas'uliyat hislarini shakllantiradi. Turlicha ehtiyojga ega bolalar bir sinfda o'qish orqali o'zaro muloqot qilishni, boshqalarni tushunishni va jamiyatda o'z o'rnini topishni o'rganadilar. Bu esa insoniy qadriyatlar va bag'rikenglikni rivojlantiradi.

Davlat siyosati nuqtayi nazaridan mohiyati

Inklyuziv ta'lim demokratik jamiyat qurilishining muhim qismi hisoblanadi. Chunki u inson huquqlariga sadoqat, ta'limdagi teng imkoniyatlar va ijtimoiy integratsiya tamoyillariga asoslanadi.

Davlat inklyuziv ta'limni joriy etish orqali ta'lim tarmog'ini yanada adolatli, ochiq va samarali qiladi. U bolalarni ajratmaydi, aksincha ularni birlashtiradi, o'zaro hurmat va insonparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Inklyuziv ta'lim – bu zamonaviy ta'lim tizimining eng asosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, "Hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyiliga tayanadi.

Bolalarni inklyuziv maktabga qabul qilish uchun ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yashash joyidagi hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan psixologik–tibbiy–pedagogik komissiyaga murojaat qiladi.

Bolalar inklyuziv maktabga psixologik–tibbiy–pedagogik komissiya xulosasiga asosan ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan o'quv yili davomida qabul qilinadi.

Inklyuziv maktablarga boshqa viloyat hududidan kelayotgan bolalar maktab joylashgan hududning psixologik–tibbiy–pedagogik komissiyasi yo'llanmasiga asosan qabul qilinadi.

Bolani inklyuziv maktabga joylashtirish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:

- ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasi;
- psixologik–tibbiy–pedagogik komissiya xulosasi;
- tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;
- ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatlar (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);
- o'qish joyidan ta'limning muddati, o'quv fanlarini o'zlashtirishi va xulq-atvori, o'quvchiga yakka tartibda ko'mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsil tahlili aks ettirilgan ma'lumotnoma va tavsifnoma (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);
- o'quvchining yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal (to'liq) ko'chirma.

Inklyuziv maktablarga qanday bolalar qabul qilinishini ko'rib chiqasak, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qolishi 60 dB gacha bo'lgan, rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);
- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan, rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);
- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos keladigan bolalar);
- nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (intellektual rivojlanishi saqlangan, alaliya, dislaliya, afaziya, rino-



laliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojlanish sustligi, duduqlanish bilan kechuvchi holatlar);

- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi – pakanalik);
- aqliy rivojlanishi saqlangan holdagi tayanch-harakat tizimidagi buzilishlar bo'lgan bolalar;
- aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan serebral falajli bolalar);
- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;
- xulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektr buzilishi bo'lgan bolalar;
- intellektual rivojlanishi saqlanib qolgan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1 martadan oshmagan bo'lsa).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston pedagogu olimlari inklyuziv ta'limni tizimli yondashuv asosida o'rganib kelmoqda. Zamilova R. R. inklyuziv ta'limning uzluksiz ta'lim tizimidagi ahamiyatini asoslab, alohida ehtiyojli bolalar uchun ijtimoiy adolat va ta'limda teng imkoniyatlar yaratilishi zarurligini ta'kidlaydi. Muallifning izohlashicha, inklyuziv muhitda o'qituvchining moslashuvchan yondashuvi, pedagogik hamkorlik va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yetarli bo'lganda, bolalarning ijtimoiy integratsiyasi yuqori bo'ladi. Axmedov A. A. ijtimoiy pedagogika doirasida barcha bolalar, jumladan imkoniyati cheklangan o'quvchilarning jamiyatga moslashuvini qo'llab-quvvatlash, ularning psixologik ehtiyojlarini hisobga olishni muhim omil sifatida ko'rsatadi.

Ablayarov F. inklyuziv ta'limni rivojlantirishda davlat siyosati va amaliy mexanizmlarni yoritib, ayniqsa yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni bozor iqtisodiyoti talablariga mos kasblarga yo'naltirish jarayoniga e'tibor qaratadi. Xushnazarova M. N. inklyuziv ta'limda kasbga yo'naltirishning ahamiyatini tahlil qilib, har bir o'quvchining qobiliyati va salohiyatidan kelib chiqib kasbiy ta'limga moslashtirilgan metodikalar qo'llanishi zarurligini ta'kidlaydi. Olimlar fikriga ko'ra, inklyuziv ta'limda kasbga yo'naltirish faqat ta'lim sifatini oshirish emas, balki o'quvchilarning kelajakda mustaqil hayot kechirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy kafolat hamdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi inklyuziv ta'lim tizimida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonining amaliy holatini o'rganishga qaratildi. Ma'lumotlar asosiy va qo'shimcha manbalar orqali yig'ildi: umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar bilan suhbatlar o'tkazildi, ota-onalar va o'quvchilar o'rtasida so'rov-nomalar tashkil etildi, shuningdek, mavjud davlat qarorlari, tahliliy hisobotlar va statistik ma'lumotlar o'rganildi. Olingan natijalar taqqoslash, mazmuniy tahlil va umumlashtirish usullari asosida qayta ishlanib, inklyuziv ta'limda kasbga yo'naltirishning dolzarb jihatlari, samaradorlik ko'rsatkichlari hamda mavjud muammolar aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ayni sohada bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabr "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son³ qarori bu borada amalga oshirilishi mo'ljallangan sa'y-harakatlar uchun huquqiy asos bo'ldi.

Mazkur qaror bilan 2020–2025-yillar uchun xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021-yillarda uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi", shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi.

Ahamiyatlisi, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham:

- nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish (66-maqsad);
- yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish (70-maqsad) kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabr "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori: <https://lex.uz/docs/-5044711>



Nogironligi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini va mehnatga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ilm-fan, texnika, san'at va sportga jalb etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-57-son⁴ qarorining 9-z-bandiga muvofiq, Yoshlar ishlari agentligiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- nogironligi bo'lgan yoshlarga o'zini-o'zi band qilish, tadbirkorlikka jalb qilish imkoniyatlarini yaratish;
- kasb-hunarga o'qish uchun subsidiyalarni olishda ko'maklashish;
- xorijiy tillarni o'rganish va nodavlat ta'lim xarajatlarini qoplashda yordam berish;
- zarur asbob-uskunalar xaridiga ko'maklashish.

Shunga muvofiq, Yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan har yili 500 nafargacha nogironligi bo'lgan yoshlarga BHMning 50 baravarigacha bo'lgan subsidiya ajratish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-iyundagi 341-son qarori qabul qilingan.

Prezidentning yuqoridagi qarori davlat va jamiyat hayotida kutilgan samaralarni bera boshladi. 2023–2024-o'quv yilining birinchi yarim yilligida respublikamizdagi 530 ta umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim joriy etilib, 1 195 nafar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola qamrab olingan. Ularning 449 nafari (37,6 %) – qizlar.

Boshlang'ich tayanch korreksion sinflar bo'yicha:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri – 27-maktab
2. Andijon viloyati Andijon shahri – 17-maktab
3. Buxoro viloyati Kogon shahri – 4-maktab
4. Xorazm viloyati Urganch shahri – 12-maktab

Bu sinflarda 62 nafar bola o'qimoqda.

Inklyuziv ta'lim joriy etilgan maktablarda 115 nafar maxsus pedagog faoliyat yuritmoqda.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi mutaxassisleri tomonidan 2021–2022-o'quv yilidan boshlab 12 ta metodik va 10 ta tavsiyaviy qo'llanma ishlab chiqildi.

Inklyuziv ta'lim targ'iboti maqsadida Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida "Inklyuziv ta'lim: barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar" shiori ostida seminar-treninglar o'tkazildi.

2021–2022-o'quv yilidan boshlab rahbarlar, psixologlar va pedagoglar uchun 72 soatlik onlayn malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda. Kurslarda Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Yaponiya mutaxassisleri ham ishtirok etmoqda.

Har yili "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar", "Inklyuziv ta'limda xalqaro tajriba va natijalar" mavzularida ilmiy konferensiyalar o'tkazilmoqda.

2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori asosida 2021-yil 13-apreldagi 113-son buyruq bilan "Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi" tashkil etilgan.

Shu bilan birga, mavjud muammolar ham mavjud:

- hududiy bo'limlarning psixolog-metodistlari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etilmagan;
- tyutorlarni maktablarga jalb etishda sustkashliklar mavjud;
- aholining inklyuziv madaniyati yetarli darajada shakllanmagan.

Shunga ko'ra quyidagilar maqsadga muvofiq:

- 2024-yildan psixolog-metodistlar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'yish;
- oliy ta'lim talabalarini inklyuziv maktablarda amaliyot o'tashga jalb qilish;
- axborot targ'ibotini kuchaytirish: televideniye, seminar va treninglar orqali;
- har bir bola uchun individual rivojlanish dasturlarini joriy etish.

Ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash, barcha bolalarning til, madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'i nazar muvaffaqiyatga erishishi uchun sharoit yaratish inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning bosh maqsadi hisoblanadi.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-57-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-5789981>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'lim – jamiyatning barcha qatlamlari uchun ochiq, teng imkoniyatlar yaratadigan zamonaviy ta'lim modeli bo'lib, har bir bolaga o'z qobiliyatlari darajasida rivojlanish imkonini beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim samaradorligi uning asosiy tamoyillari – insonparvarlik, tenglik, farqlangan yondashuv, hamkorlik va moslashuvchan ta'lim muhiti bilan chambarchas bog'liq. Bunday muhitni yaratish o'qituvchi, psixolog, defektolog, ota-onalar va jamiyatning yagona tizim sifatida hamkorlikda ishlashini talab etadi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish alohida ahamiyatga ega. Chunki to'g'ri tanlangan kasb nafaqat o'quvchining shaxsiy rivoji, balki uning kelajakdagi ijtimoiy faolligi, iqtisodiy mustaqilligi va jamiyatda o'z o'rnini topishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun kasbga yo'naltirish - ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi va hayotda munosib o'rnini egallashi uchun muhim garovdir.


Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim tizimi va unda kasbga yo'naltirish jarayonlarini takomillashtirish – ta'lim sifatining oshishiga, jamiyatning esa adolatli, bag'rikeng va rivojlangan bo'lishiga xizmat qiladi.

Bu yo'nalishda quyidagilar zarur:

- o'qituvchilarning malakasini oshirish;
- o'quv dasturlarini moslashtirish;
- amaliy kasbiy tajribalarni kengaytirish;
- har bir o'quvchi uchun individual rivojlanish yo'l xaritasini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 21-dekabrda PQ-57-son qarorining 9-z-bandi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.
3. Ablayarov F. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktorining o'rinbosari. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim: joriy o'zgarishlar va taraqqiyot yo'nalishlari.
4. Zamilova R. R. Uzluksiz ta'lim pedagogikasi va inklyuziv ta'lim. Darslik. "USMON NOSIR MEDIA", Namangan - 2023.
5. Axmedov A. A. Ijtimoiy pedagogika (maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun). O'quv qo'llanma. "KAMOLOT", Buxoro – 2023.
6. Xushnazarova M. N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Toshkent - 2025.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.